

**MOLIYAVIY HISOBOTLAR 24/7: BIZNESNI REAL VAQT REJIMIDA  
BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS SAN'ATI VA ISTIQBOLLARI**

**Xamidova Rayhona Ilhomjonovna**

*Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Buxgalteriya Hisobi ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni real vaqt rejimida yuritishning afzalliklari, ahamiyati va istiqbollari tahlil qilinadi. An'anaviy tarzda yuritiladigan davriy hisobot tizimining kamchiliklari ochib berilib, 24/7 -uzluksiz hisob tizimining boshqaruvdagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy bulutli texnologiyalar hamda boshqa tizimlarning moliyaviy shaffoflik va boshqaruvdagi samaradorlikni oshirishdagi roli ilmiy-amaliy jihatdan ko'rsatiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** raqamli iqtisodiyot, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy hisobotlar, real vaqt rejimidagi hisob, innovatsion boshqaruv, bulutli hisob platformalari, operativlik, avtomatlashtirilgan tizimlar, uzluksiz hisob, moliyaviy shaffoflik.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируются преимущества, значение и перспективы ведения финансовой отчетности в режиме реального времени в условиях цифровой экономики. Раскрываются недостатки традиционной системы периодической отчетности и освещается роль системы непрерывного учета 24/7. Также с научно-практической точки зрения демонстрируется роль современных облачных технологий и других систем в повышении финансовой прозрачности и эффективности управления.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** цифровая экономика, эффективность управления, финансовая отчетность, учет в режиме реального времени, инновационное управление, облачные платформы учета, оперативность, автоматизированные системы, непрерывный учет, финансовая прозрачность.

**ABSTRACT:** This article analyzes the advantages, importance, and prospects of maintaining real-time financial reporting in the digital economy. It reveals the shortcomings of the traditional periodic reporting system and highlights the role of the 24/7 continuous accounting system in management. It also demonstrates the role of modern cloud technologies and other systems in increasing financial transparency and management efficiency from a scientific and practical perspective.

**KEYWORDS:** digital economy, management efficiency, financial reporting, real-time accounting, innovative management, cloud accounting platforms, efficiency, automated systems, continuous accounting, financial transparency.

**ÖZET:** Bu makalede, dijital ekonomi koşullarında gerçek zamanlı mali raporlamanın avantajları, önemi ve perspektifleri analiz edilmektedir. Geleneksel olarak yürütülen periyodik raporlama sisteminin eksiklikleri açığa çıkarılarak, 24/7 kesintisiz muhasebe sisteminin yönetimdeki rolü ele alınmaktadır. Ayrıca, modern bulut teknolojilerinin ve diğer sistemlerin mali şeffaflığın ve yönetimdeki verimliliğin artırılmasındaki rolü bilimsel ve pratik açıdan gösterilmektedir.

**ANAHTAR KELIMELER:** dijital ekonomi, yönetim verimliliği, mali raporlama, gerçek zamanlı muhasebe, yenilikçi yönetim, bulut muhasebe platformları, operativlik, otomatik sistemler, sürekli muhasebe, mali şeffaflık.

## Kirish

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatini samarali boshqarishda moliyaviy axborotlarning tezkorligi, aniqligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy moliyaviy hisobot tizimlari odatda oylik, choraklik yoki yillik davrlar asosida shakllantiriladi. Bunday yondashuv tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishda yetarli darajada samarali bo'lmay qolmoqda. Chunki davriy (oylik, choraklik, yillik) hisobotlar tayyor bo'lgunga qadar iqtisodiy vaziyat o'zgarib ketishi, korxonada esa allaqachon kechikkan ma'lumot asosida qaror qabul qilishi mumkin. Shu sababli real vaqt rejimida ishlovchi moliyaviy hisobot tizimlariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

24/7 uzluksiz moliyaviy hisobot yuritish tizimi korxonalarga moliyaviy operatsiyalarni bir vaqtning o'zida qayd etish, tekshirish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Real vaqt rejimida hisobot yuritadigan tizimlar bulutli texnologiyalar (Cloud Computing), ERP (Enterprise Resource Planning), sun'iy intellekt, Big Data va Business Intelligence platformalari bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Natijada boshqaruv organlari real vaqt rejimida korxonaning moliyaviy holatini o'rganib chiqish, tavakkalchiliklarni oldindan aniqlash va tezkor strategik qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'lishadi va bu orqali ular yanada yuqori samaradorlikka erishishlari mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda ham real vaqt hisobotlari biznes samaradorligini oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash hamda investorlar ishonchini kuchaytirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Antonio Trigo, Fernando Belfo va Raquel Perez Estebanez tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda real vaqt hisobotlari "now economy" — ya'ni tezkor iqtisodiyotning muhim ahamiyatga ega talablaridan biri sifatida ko'rsatilib, bugungi kunda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning dolzarbligi va ayni vaqtda ko'rsatilishi zamonaviy biznesda eng asosiy ko'rsatkich ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, bulutli hisob tizimlari asosida ishlovchi moliyaviy

platformalar hisobotlarning aniqligi, ishonchliligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Zamonaviy ERP va “cloud accounting” tizimlari moliyaviy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash orqali inson omili bilan bog‘liq arifmetik va boshqa jiddiy xatolarni kamaytiradi va audit-tekshirish jarayonlarini osonlashtiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — real vaqt rejimida ishlovchi 24/7 moliyaviy hisobot tizimlarining iqtisodiy mohiyatini, afzalliklari va boshqaruvdagi ahamiyatini yoritish, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarning moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

## **Asosiy qism**

### An’anaviy moliyaviy hisobot tizimining kamchiliklari

An’anaviy moliyaviy hisobot tizimlari uzoq yillar davomida korxonalarining asosiy boshqaruv vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ushbu tizimda hisobotlar ma’lum davr oralig‘ida — oy, chorak yoki yil yakunida tayyorlanadi. Ammo raqamli iqtisodiyot va globallashtirish jarayonida bunday tizimning ko‘plab kamchiliklari ham yuzaga chiqmoqda. Avvalo, davriy hisobotlar ma’lumotlarning ahamiyatligini eskirib qolishiga sabab bo‘ladi. Korxonalar faoliyati bozor sharoitiga juda tez moslashishi kerak bo‘lgan vaziyatda ancha oldingi moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida qaror qabul qilish samaradorlikni pasaytirish ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, davriy hisobotlar tizimida inson omiliga bog‘liq xatolar yuqori bo‘ladi. Ma’lumotlarni qo‘lda qayta ishlash va konsolidatsiya qilish ko‘p vaqt va yuqori xarajat talab etadi hamda xatolik ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy axborotlarning kechikib taqdim etilishi korporativ shaffoflik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda esa investorlar real vaqt rejimida yangilanadigan moliyaviy ma'lumotlarga ehtiyoj sezmoqda.

## 24/7 real vaqt moliyaviy hisobot tizimining mohiyati

24/7 moliyaviy hisobot tizimi — bu korxonaning moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini uzluksiz ravishda qayd etuvchi va real vaqt rejimida tahlil qiluvchi raqamli boshqaruv tizimidir. Ushbu modelda moliyaviy ma'lumotlar avtomatik ravishda yangilanib boradi va foydalanuvchilarga istalgan vaqtda dolzarb axborotni olish imkonini beradi. Buning uchun birgina birlamchi ma'lumotlarni kirgizish kifoya, qolgan hisobotlar xatolarsiz va uzluksiz ravishda har soniyada shakllanadi.

Real vaqt hisobot tizimlari quyidagi texnologik elementlarga asoslanadi:

- ❖ ERP tizimlari;
- ❖ Bulutli hisoblash texnologiyalari;
- ❖ Sun'iy intellekt
- ❖ Big Data analitikasi;
- ❖ Business Intelligence platformalari.

ERP tizimlari korxonaning barcha bo'limlarini yagona ma'lumotlar bazasiga birlashtirib, moliyaviy operatsiyalarni avtomatik integratsiyalash imkonini yaratadi. Bulutli texnologiyalar esa ma'lumotlardan istalgan makon va vaqtda foydalanishni ta'minlaydi.

Antonio Trigo real vaqt rejimida hisobot olib borish korxonalarga tezkor qaror qabul qilish, tavakkalchiliklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini berishini ta'kidlaydi.

## Bulutli texnologiyalar va ERP tizimlarining ahamiyati

So‘nggi yillarda “cloud accounting” va “cloud ERP” tizimlari moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu texnologiyalar korxonalariga katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni real vaqt rejimida-24/7- qayta ishlash imkoniyatini yaratmoqda.

Bulutli texnologiyalarning asosiy afzalliklari quyidagilar hisoblanadi:

- ma’lumotlarga istalgan masofadan kirish imkoniyati;
- xarajatlarni optimallashtirish;
- axborot xavfsizligini ta’minlash;
- avtomatlashtirilgan audit va nazorat;
- hisobotlarning tezkor shakllanib borishi.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy hisobot tizimlari moliyaviy hisobotlarning aniqligi, ishonchliligi va dolzarbligini oshiradi. Shuningdek, Oracle AHCS kabi zamonaviy ERP platformalari bir vaqtning o‘zida ko‘plab xalqaro standartlar (IFRS(International financial reporting standarts),GAAP) asosida hisobot yuritish imkonini beradi. Bu esa kompaniyalar uchun moliyaviy boshqaruvni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

### Real vaqt hisobot tizimining istiqbollari

Kelajakda 24/7 moliyaviy hisobot tizimlari yanada rivojlantirilib, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari bilan integratsiyalashishi kutilmoqda. AI texnologiyalari moliyaviy tahlillarni yaratish, firibgarlik va xatoliklarni aniqlash va avtomatik audit-nazorat tizimlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Blokcheyn texnologiyasi esa moliyaviy ma’lumotlarning o‘zgarmasligini ta’minlab, shaffoflikni kafolatlaydi. Bundan tashqari, real vaqt hisobotlari investorlar ishonchini oshirish va ularni jalb qilish, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va xalqaro shartnomalarni ko‘paytirishda muhim omilga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan

bir sharoitda korxonalar uchun uzluksiz moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etish strategik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, 24/7 real vaqt moliyaviy hisobot tizimlari zamonaviy biznes boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu tizimlar korxonalarga moliyaviy ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish imkonini beradi. ERP, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar hisobot jarayonlarini avtomatlashtirib, biznesning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Demak, real vaqt rejimida ishlovchi moliyaviy hisobot tizimlari nafaqat zamonaviy boshqaruvning innovatsion shakli, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Trigo, A., Belfo, F., & Pérez Estébanez, R. *Accounting Information Systems: The Challenge of the Real-Time Reporting*. Procedia Technology, 2014.
2. Romney, M. B., & Steinbart, P. J. *Accounting Information Systems*. 14th Edition. Pearson Education, 2018.
3. Hall, J. A. *Accounting Information Systems*. 10th Edition. Cengage Learning, 2019.
4. Laudon, K. C., & Laudon, J. P. *Management Information Systems: Managing the Digital Firm*. 16th Edition. Pearson, 2020.
5. Granlund, M. *On the Interface between Management Accounting and Modern Information Technology*. Helsinki School of Economics, Finland, 2011.
6. Dimitriu, O., & Matei, M. *A New Paradigm for Accounting through Cloud Computing*. Procedia Economics and Finance, 2014.  
Available at: ScienceDirect maqolasi

7. Sultanova, G. S. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirish istiqbollari*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF–6079-son.
9. Gelinas, U. J., Dull, R. B., & Wheeler, P. *Accounting Information Systems*. 11th Edition. Cengage Learning, 2018.
10. Warren, C. S., Reeve, J. M., & Duchac, J. *Financial Accounting*. 15th Edition. Cengage Learning, 2020.
11. Turban, E., Pollard, C., & Wood, G. *Information Technology for Management: Driving Digital Transformation to Increase Local and Global Performance*. Wiley, 2018.